



A HISTORICAL OVERVIEW OF LINGUISTIC UNITS EXPRESSING THE SENSE OF TOUCH IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK

Dilshodabonu Anorboyeva

*Doctoral Researcher (PhD Student) in the specialty Comparative Literature
Contrastive Linguistics and Translation Studies*

Andijan State University

Email: dilyushaanarboyeva@gmail.com

Science ID: MAN-0926-0030

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: perception, sense of touch, perceptive lexis, lexical-semantic group, cognitive linguistics, linguoculturology, taxonomic model, contrastive analysis.

Received: 03.09.26

Accepted: 04.09.26

Published: 05.09.26

Abstract: The article analyses the history of research into the language units expressing the sense of touch in three typologically different languages – English, Russian and Uzbek. The aim of the study is to identify the stages through which this lexical-semantic group has been investigated within the three scholarly traditions and to substantiate the research gap in Uzbek linguistics. More than forty linguistic sources created between the second half of the 20th century and the first quarter of the 21st century were selected as material; descriptive-analytical, historical-comparative (historiographic), contrastive methods and elements of componential analysis were applied. The results show that in all three traditions the visual and auditory modalities have been studied considerably more than the tactile one. The author explains this asymmetry by the mixed – physical-physiological and mental – nature of the semantics of the verbs expressing tactile perception. It is concluded that no monographic linguocognitive and linguocultural study of the units expressing tactile perception has been undertaken in Uzbek linguistics, which makes it a promising field for the contrastive analysis of genetically unrelated languages.

**INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA TEGINISH SEZGISINI IFODALOVCHI TIL
BIRLIKLARINING TARIXIY TADQIQIGA NAZAR**

Dilshodabonu Anorboyeva

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

yo'nalishi tayanch doktoranti

Andijon davlat universiteti

Email: dilyushaanarboyeva@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MAN-0926-0030

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: persepsiya, teginish sezgisi, perseptiv leksika, leksik-semantik guruh, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, taksonomik model, chog'ishtirma tahlil.

Annotatsiya: Maqolada tipologik jihatdan farq qiluvchi uchta tilda – ingliz, rus va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi til birliklarining o'rganilish tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi mazkur leksik-semantik guruhning uchta ilmiy an'anadagi o'rganilish bosqichlarini aniqlash va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqot bo'shlig'ini asoslashdan iborat. Material sifatida XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning birinchi choragida yaratilgan qirqdan ortiq lingvistik manba tanlab olindi; tavsifiy-analitik, tarixiy-qiyosiy (istoriografik), chog'ishtirma hamda komponent tahlil elementlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, uchala an'anada ham ko'rish va eshitish moduslari teginish modusiga nisbatan sezilarli darajada ko'proq o'rganilgan. Muallif bu nomutanosiblikni teginish sezgisini ifodalovchi fe'llar semantikasining aralash – fizik-fiziologik hamda mental – tabiati bilan izohlaydi. Xulosa qilib, o'zbek tilshunosligida teginish sezgisini ifodalovchi lisoniy birliklarning lingvokognitiv va lingvokulturologik tadqiqi monografik jihatdan amalga oshirilmagani, bu esa qardosh bo'lmagan tillarni chog'ishtirish uchun istiqbolli maydon ekani ta'kidlanadi.

ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ОЩУЩЕНИЕ ПРИКОСНОВЕНИЯ, В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Дилишодабону Анорбоева

Базовый докторант по специальности

Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

Андижанский государственный университет

Email: dilyushaanarboyeva@gmail.com

Science ID: MAN-0926-0030

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: перцепция, осязание, перцептивная лексика, лексико-семантическая группа, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, таксономическая модель, сопоставительный анализ.

Аннотация: В статье анализируется история изучения языковых единиц, выражающих осязательное восприятие, в трёх типологически разных языках – английском, русском и узбекском. Цель исследования состоит в выявлении этапов изучения данной лексико-семантической группы в трёх научных традициях и в обосновании исследовательской лакуны в узбекском языкознании. Материалом послужили более сорока лингвистических источников, созданных со второй половины XX века до первой четверти XXI века; применялись описательно-аналитический, историко-сравнительный (историографический), сопоставительный методы и элементы компонентного анализа. Результаты показывают, что во всех трёх традициях зрительная и слуховая модальности изучены значительно полнее осязательной. Автор объясняет эту асимметрию смешанной – физико-физиологической и ментальной – природой семантики глаголов осязательного восприятия. Делается вывод о том, что в узбекском языкознании лингвокогнитивное и лингвокультурологическое исследование единиц осязательного восприятия монографически не осуществлено, что делает данную область перспективной для сопоставления неродственных языков.

Kirish. Inson uni qurshab turgan olam boyliklarini beshta his etish organi – ko‘rish, eshitish, ta‘m bilish, hid bilish va sezish (teginish) orqali biladi. His etish organlari yordamida biz miyaga keluvchi ma‘lumotlarni qabul qilamiz, tanlaymiz va to‘playmiz; bu organlar va ular bilan bog‘liq miya qismlari tashqi taassurotlarni qabul qiluvchi hamda tahlil qiluvchi murakkab tizimni tashkil etadi. Bugungi kunda tilshunoslar va psixologlar miyaga keluvchi ma‘lumotlarni qayta ishlovchi organlar idrok bilan bevosita munosabatda bo‘la olishi haqida bir to‘xtamga kelishgan [1].

Idrok obrazining tuzilishi psixologiyada A.N.Leontyev tomonidan asoslab berilgan: olim predmetning idrok etuvchi obrazida uchta asosiy komponent harakatga kelishini – “his etishni birlashtiruvchi to‘qima”, “ma‘no” va “shaxsiy idrok”ni ajratadi. V.M.Rozin mazkur g‘oyani davom ettirib, “ma‘no” komponenti persepsiyaning ijtimoiy me‘yorini aynan tilda, so‘zda, tushunchada belgilashini ta‘kidlaydi [2, 3]. Aynan shu qoida idrokni tilshunoslikning tadqiq

obyektiga aylantiradi: insonning verbal tushuncha tizimi bilan birgalikda idrok tizimi til orqali idrok mexanizmlari dunyosini yaratadi.

Tilshunoslikning rivojlanish tarixini ilmiy paradigmalarning o'zgarishi deb ta'riflash mumkin, ularning har biri tadqiqot obyekti va uni o'rganish usullari haqidagi dastlabki g'oyalarning o'ziga xos to'plami bilan tavsiflanadi [4]. Perseptiv leksika ham shu paradigmalar almashinuvi mobaynida struktur-semantik tavsifdan maydon nazariyasi orqali kognitiv-pragmatik talqinga qadar yo'l bosib o'tdi [5; 85–87- b., 6]. Biroq bu yo'lda sezilarli nomutanosiblik kuzatiladi: ko'rish va eshitish moduslarini ifodalovchi til birliklari o'nlab monografiya va dissertatsiyalarda o'rganilgan bo'lsa-da [7, 8, 9, 10, 11], teginish modusi mustaqil tadqiq obyekti sifatida kamdan-kam ajratilgan. Bu holat, ayniqsa, o'zbek tilshunosligida yaqqol namoyon bo'ladi va tadqiqot muammosini belgilaydi: teginish sezgisini ifodalovchi til birliklarining o'rganilish tarixi hozirgacha yaxlit tarzda tavsiflanmagan hamda uchta yirik ilmiy an'ana – g'arb, rus va o'zbek tilshunosligi – doirasida qiyosiy baholanmagan [12, 13, 14, 15].

Maqolaning maqsadi ingliz, rus va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi til birliklarining o'rganilish bosqichlarini aniqlash va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqot bo'shlig'ini asoslashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, perseptiv leksikaning lingvistik tadqiq obyekti sifatida shakllanish jarayonini aniqlash; ikkinchidan, g'arb, rus va o'zbek tilshunosligida mazkur guruhning o'rganilish yo'nalishlarini davrlashtirish; uchinchidan, uchta an'anani chog'ishtirib, o'rganilmagan jihatlarni ajratib ko'rsatish.

Metodologiya. Tadqiqot materialini XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning birinchi choragida yaratilgan qirqdan ortiq lingvistik manba tashkil etdi. Manbalar quyidagi mezonlar asosida tanlab olindi: a) ishning bevosita perseptiv leksikaga yoki idrokni ifodalovchi fe'llarga bag'ishlanganligi; b) muallifning ingliz, rus yoxud o'zbek tilshunosligi an'anasiga mansubligi; d) tadqiqotning nazariy-metodologik ahamiyati, ya'ni keyingi izlanishlarga asos bo'lganligi. Manbalar tarkibiga monografiyalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari hamda ularning avtoreferatlari, ilmiy maqolalar va izohli lug'atlar kiritildi. Leksik mikrosistemani ajratish va uning tarkibini belgilashda sistem tilshunoslik asoslariga tayanildi [16, 17].

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda perseptiv leksikaga doir nazariy-metodologik qarashlar tahlil qilinib, mazkur guruhning tadqiq obyekti sifatida shakllanish jarayoni aniqlandi. Ikkinchi bosqichda tarixiy-qiyosiy (istoriografik) metod va davrlashtirish usuli qo'llanilib, har bir an'anada mavzuning o'rganilish yo'nalishlari xronologik ketma-ketlikda tasniflandi; bunda tilshunoslik tarixini ilmiy ta'limotlar almashinuvi sifatida davrlashtirish tamoyili asos qilib olindi [4]. Uchinchi bosqichda chog'ishtirma metod asosida uchala an'ana o'zaro qiyoslandi va tadqiqot bo'shliqlari aniqlandi; chog'ishtirma tahlilning nazariy asoslari

sifatida qiyosiy tilshunoslikning umumnazariy qoidalarini hamda turli tizimli tillarni chogʻishtirish tajribasi eʼtiborga olindi [18; 4–9- b., 19, 20]. Butun tahlil davomida tavsifiy-analitik metod, komponent tahlil elementlari hamda ilmiy manbalarning mazmuniy tahlili yetakchi vosita boʻlib xizmat qildi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: tahlilga faqat chop etilgan va ochiq foydalanishdagi manbalar jalb qilindi; gʻarb tilshunosligi anʼanasi asosan ingliz tilidagi nashrlar bilan chegaralandi; ayrim manbalar birlamchi matn emas, balki ularga bagʻishlangan ilmiy sharhlar orqali baholandi.

Natijalar. Perseptiv leksikaning tadqiq obyekti sifatida shakllanishi. Perseptivlik umumiy semantik komponentlar bilan birlashuvchi birliklar guruhini yuzaga keltiradi va turli semasiologlar ushbu guruhning mazmun planini turlicha talqin etadilar. Mazkur yoʻnalishdagi dastlabki muhim qadamni Y.V.Yolkina qoʻydi: olim zamonaviy ingliz tilida look–see, listen–hear, touch–feel, sniff–smell, try–taste korrelyativ juftliklarining semantik-sintaktik tahlilini amalga oshirdi va bu juftliklar soʻzlovchi ongida shunchaki sinonim emas, balki mustaqil til nizomiga ega birliklar sifatida shakllanishini asoslab berdi [21; 31- b.]. Ahamiyatlisi shundaki, aynan mana shu roʻyxatda teginish modusi – touch–feel juftligi – birinchi marta boshqa moduslar bilan bir qatorda tizimli ravishda ajratib koʻrsatilgan.

V.I.Koduxov olimaning izidan borib, leksik-semantik guruh (LSG)ni umumiy asosiy maʼno komponentlari bilan bir soʻz turkumiga bogʻlangan soʻzlar birligi sifatida talqin qiladi va yuqoridagi juftliklar tarkibiga kiruvchi semantik strukturalarni aniqlaydi [22]. E.M.Umaxanova esa to see, to hear, to feel, to smell, to taste feʼllarining struktur-semantik tavsifini berib, ularning koʻp maʼnoliligini oʻrganish barobarida asosiy nominativ va koʻchma maʼnolarini birinchi va ikkinchi maʼno markazlari tarzida qatʼiy chegaralaydi. Olimaning fikricha, asosiy nominativ maʼnolar his etish persepsiyasining aniq ifodasini koʻrsatib beradi va feʼlning semantik qurilishida birinchi maʼno markazini tashkil qiladi [23, 24]. Shu tariqa XX asrning 70-yillarida perseptiv leksika mustaqil leksik-semantik guruh maqomini oldi.

Gʻarb tilshunosligida. Perseptiv birliklarni oʻrganishning nazariy asoslari, avvalo, kognitiv paradigma doirasida shakllandi. Xorijda kognitiv grammatikaga doir R.Lengekerning fundamental ishi hamda J.Lakoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasi perseptiv feʼllarning koʻchma maʼnolarini tizimli tushuntirishga imkon berdi [25, 26; 387–415- b.]. A.Vejbitskayaning leksikografiya va konseptual tahlilga bagʻishlangan izlanishlari esa idrok bilan bogʻliq leksikaning maʼno tuzilishini tavsiflashda alohida oʻrin tutadi [27].

Perseptiv predikatlarning sintaktik-semantik maqomi masalasida amerika tilshunosi U.Kroftning ishlari yetakchi hisoblanadi. Olim ingliz tilida turli holat-vaqt qurilmalarini, aynan har xil turdagi predikatlarni ifodalovchi feʼllarni oʻrganib, persepsiya maʼnosidagi predikatlarni

Vendler tomonidan ishlab chiqilgan predikatlar tasnifi asosida o'timli holat fe'llari guruhiga taalluqli deb baholaydi; bundan tashqari, u present shaklidagi ko'pgina o'timli holat predikatlari every day, whenever kabi ravishlar bilan voqelikni takrorlovchi ma'noni anglatishi mumkinligini ko'rsatadi [28; 34- b., 29; 62- b.]. Bilimlarni tasvirlashning freym nazariyasi (M.Minskiy), mental modellar konsepsiyasi (F.Jonson-Leyrd) hamda konseptual integratsiya nazariyasi (J.Fokonye) perseptiv tajribaning ongda tashkil etilishini tushuntirishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi [30; 52–55- b., 31, 32]. Mavzuning pragmatik va diskursiv jihatlari esa G.Yul, T.van Deyk kabi olimlarning ishlarida yoritilgan [33, 34].

Rus tilshunosligida. Tarixiy-semasiologik yo'nalishda professor I.N.Gavrilin fransuz tili materiali asosida idrokni ifodalovchi fe'llarning polisemiyasi muammosini o'rgandi va qadimgi, o'rta hamda zamonaviy fransuz tili bosqichlarida mazkur guruh ichidagi sinonimik munosabatlarning o'zgarishini aniqladi [35; 189–192- b.]. S.A.Moiseyevaning g'arbiy roman tillari materialidagi monografiyasi esa persepsiya fe'llarining semantik maydonini tizimli tavsiflab berdi: makromaydon muayyan perseptiv modusga bog'liq bo'lgan beshta mikromaydondan tashkil topadi, "idrok etmoq" semasi makromaydonning invariant belgisi, "idrok bilan bog'liq bo'lgan biror narsani qabul qilmoq" esa perseptiv fe'llar LSG sining invariant belgisi hisoblanadi [5; 85–87- b.].

Funksional-semantik yondashuv doirasida A.Gudavichyus rus va litva tillarida idrokni ifodalovchi fe'llarning LSG sini aniqlab, persepsiyani faol jarayon sifatida talqin qiladi; olim persepsiya LSG si bilan uzviy bog'liq bo'lgan so'z guruhlarini – hissiyot doirasidagi so'zlar, persepsiya belgisi natija sifatida ifodalangan so'zlar hamda vision, hearing, touch, smell, taste ifodasini anglatuvchi so'zlarni ajratadi [36; 84- b.]. I.V.Dombrovskaya ingliz tilining amerika variantida ko'rish LSG sining diaxron dinamikasini tadqiq etgan bo'lsa, A.A.Kretov rahbarligidagi izlanishlarda persepsiya leksikasining leksik-semantik prognostikasi masalasi ko'tarilgan [7, 37].

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga yangilik kiritgan holda Y.P.Bizova idrokni ifodalovchi fe'llarning turli kommunikativ registrlardagi – reproduktiv (tasviriy), informativ, generativ – vazifalarini aniqladi va o'zaro bog'liqlik nafaqat sintaktik qurilmalarning o'ziga xosligida, balki kommunikativ registrlar vazifalarida ham namoyon bo'lishini asoslab berdi [9, 38; 398- b.]. Y.N.Podtelejnikova look leksemi misolida polisemiyaning xronologik dinamikasiga funksional-uslubiy va areal omillarning ta'sirini ko'rsatdi [39].

Alohida ilmiy maktab sifatida tilning perseptiv bazasi haqidagi nazariyani ta'kidlash lozim. Z.N.Djaparidze perseptiv bazani "fonetik birliklar etalonlari va ular bilan qiyoslash qoidalarining birligi" deb belgilagan bo'lsa, A.S.Shtern uni kengaytirib, perseptiv etalonlar nafaqat fonologik darajada, balki yuqori chastotali so'zlar, jumla tuzilmalari va matnlar darajasida ham mavjudligini asoslab berdi [40; 14- b., 41; 27- b.]. A.A.Zalevskaya esa so'z etalonlari, nutq birliklari, yuqori

chastotali iboralar va frazeologik birliklar xotirada psixolingvistik jihatdan saqlanishini eslatib o'tadi [42; 66- b.].

Leksikografik amaliyotda persepsiya fe'llarining maqomi bahsli bo'lib qolmoqda. L.M.Vasilyev ularni aksional-protsessual predikatlarning "his etish va idrok qilish" kichik guruhiga kiritdi [43; 176- b.], L.G.Babenkoning izohli lug'atida persepsiya fe'llari "intellektual faoliyat" maydoni doirasida amalga oshiriladi; xarakterliki, mazkur lug'atda ko'rish va eshitish persepsiyasi fe'llari bitta guruhda tasvirlangan, "hid sezish" fe'llari umuman kiritilmagan, "sezish" fe'llari esa "obyektga fe'llarning jismoniy ta'siri" guruhiga o'tkazilgan [44; 20–25- b.].

So'nggi yillarda mavzu kognitiv aspektda faol o'rganilmoqda: I.Y.Kolesov ko'rish idrokining aktuallashuvini, A.V.Kravchenko tilning kognitiv falsafasini, Y.V.Raxilina predmet nomlarining kognitiv tahlilini tadqiq etgan [10, 45, 46]. Kognitiv tilshunoslikning umumnazariy asoslari Y.S.Kubryakova va N.N.Boldirev ishlarida ishlab chiqilgan [47; 10- b., 48; 26- b.]. Tambov kognitiv maktabi vakillari M.Y.Belau va N.A.Budantseva esa perseptiv konseptlarning fe'l taksonomik modelini yaratdilar va uni funksional aspektda o'rgandilar [6, 14, 15]. Y.Y.Arkipova hamda Y.F.Kositsina ishlarida idrokni ifodalovchi fe'llar badiiy matn materialida diaxron kesimda tahlil qilingan [8, 49].

O'zbek tilshunosligida. Teginish sezgisini ifodalovchi til birliklari kam o'rganilgan va o'zining yechimini kutayotgan muammolarga ega murakkab masalalardan biridir. Tilshunoslikda teginish sezgisini ifodalovchi leksemalar, avvalo, struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan: T.T.Musayevning "O'zbek tilidagi sezgi fe'llari" nomli ishida sezgi fe'llarining leksik-semantik tavsifi berilgan, T.Sh.Dadayev turli tizimli (o'zbek va rus) tillarda hissiy idrok fe'llarini chog'ishtirma tahlil qilgan, Z.U.Siddiqov esa o'zbek va turk tillarida ko'ruv leksemalarining semantikasini o'rgangan [11, 12, 13]. Fe'l semantikasining umumiy masalalari R.Rasulov va S.Atiyazovlarning ishida hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yoritilgan [50; 4–5- b., 51; 111- b.]. Ko'rinib turibdiki, bu ishlarning aksariyati ko'rish moduliga qaratilgan bo'lib, teginish sezgisi mustaqil tadqiq obyekti sifatida ajratilmagan.

XXI asrda o'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning kuchayishi mavzuga yangi imkoniyatlar ochdi. Lingvokulturologiya masalalariga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova kabi olimlar tomonidan olib borilgan [52, 53, 54]. Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari, xususan, konsept va freym atamalarining talqini Sh.Safarovning "Kognitiv tilshunoslik" va "Pragmalingvistika" asarlarida ishlab chiqilgan [55; 41 va 91- b., 56]. Konsept va lingvokulturema atamalarining nazariy chegaralari U.Q.Yusupov va G'.M.Xoshimov ishlarida aniqlashtirilgan [57, 58]. Konseptlarning nominativ maydoni hamda milliy-madaniy xususiyatlari M.A.Abduvaliyev va M.M.Jo'rayevalarning doktorlik dissertatsiyalarida chog'ishtirma aspektida tadqiq qilingan [59; 34- b., 60]. Matn lingvistikasi va

kognitiv yondashuvning mohiyatiga doir qarashlar D.U.Ashurova hamda A.E.Mamatov ishlarida bayon etilgan [61, 62]. Ammo mazkur ishlarning birortasida ham teginish sezgisini ifodalovchi lisoniy birliklar maxsus tadqiq obyekti sifatida ajratib olinmagan.

Tahlil natijalarini umumlashtirgan holda uchala an'anadagi asosiy yo'nalishlarni quyidagicha davrlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Perseptiv leksikaning uchta ilmiy an'anadagi o'rganilish bosqichlari

An'ana	Davr	Yetakchi yo'nalish	Asosiy vakillari
G'arb	XX asrning 80-yillari	Kognitiv grammatika, konseptual metafora	R.Lengeker, J.Lakoff, M.Jonson, A.Vejbitskaya
G'arb	XX asr oxiri – XXI asr	Predikatlar tasnifi, freym va mental modellar	U.Kroft, M.Minskiy, F.Jonson-Leyrd, J.Fokonye
Rus	XX asrning 70–80-yillari	Semasiologik va struktur-semantik tahlil	Y.V.Yolkina, V.I.Koduxov, E.M.Umaxanova
Rus	XX asr oxiri – XXI asr boshi	Maydon nazariyasi, funksional-semantik tahlil	S.A.Moiseyeva, A.Gudavichyus, I.V.Dombrovskaya
Rus	XXI asr	Kognitiv-pragmatik tahlil, taksonomik modellash	Y.P.Bizova, I.Y.Kolesov, M.Y.Belau, N.A.Budantseva
O'zbek	XX asrning 90-yillari – 2000-yillar	Struktur-semantik tavsif	T.T.Musayev, T.Sh.Dadayev, Z.U.Siddiqov
O'zbek	XXI asr	Kognitiv-lingvokulturologik yondashuv	Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, D.U.Ashurova

Muhokama. Olingan natijalar perseptiv leksika tadqiqidagi asosiy nomutanosiblikni – ko'rish modusining ustunligini va teginish modusining chetda qolishini – yaqqol ko'rsatadi. Bu holatni tasodifiy deb bo'lmaydi. Semantik hukmronlik tabiatiga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi ikkita guruh mavjud – fizik harakat predmetlari va aqlga asoslangan narsalar; persepsiya fe'llari esa aralash semantikaga ega predikatlar sifatida qaraladi, chunki ularning ma'nosi bir vaqtning o'zida ham jismoniy (aniqrog'i, fizik-fiziologik), ham mental komponentlardan tashkil topadi [43; 176- b., 63; 303- b.]. Teginish sezgisini ifodalovchi fe'llarda bu aralashlik eng yuqori darajaga chiqadi: ularda idrok komponenti obyektini subyekt maydoniga kiritish bilan bog'liq bo'lib, qat'iy jismoniy harakat sifatida ham tavsiflanmaydi.

Ayni shu sabab idrokni ifodalovchi fe'llarning turlicha tasniflanishiga olib keladi: har bir leksik-semantik guruh alohida ajratilgan yopiq shakl emas, fe'llar o'rtasida turli tizimli bog'liqliklar mavjud va kichik guruhlarni ajratishning boshlang'ich nuqtasi uchun turli xil mezonlar qo'llaniladi [16, 22]. L.G.Babenko lug'atida "sezish" fe'llarining persepsiya guruhidan chiqarilib, "obyektga jismoniy ta'sir" guruhiga o'tkazilgani [44; 20–25- b.] aynan shu chegaraviy holatning leksikografik aksidir. Demak, teginish leksikasining kam o'rganilishi tadqiqotchilar e'tiborsizligining emas, balki obyektning semantik tabiatidan kelib chiqadigan tasnifiy beqarorlikning natijasidir. Bu esa mazkur guruhni o'rganishda struktur tavsif yetarli emasligini, kognitiv-taksonomik modellashirish zarurligini ko'rsatadi [14, 15, 48; 26- b.].

Uchala an'ananing hissasi va cheklovlari ham farqlanadi. G'arb tilshunosligi mavzuga eng kuchli nazariy apparatni – kognitiv grammatika, konseptual metafora, freym va mental modellar nazariyasini bergan; biroq bu apparat asosan hind-yevropa materialida sinovdan o'tgan bo'lib, agglyutativ tillar materialida yetarlicha tekshirilmagan [19, 20]. Rus tilshunosligi mavzuni eng batafsil ishlagan an'ana bo'lib, semasiologik tahlildan maydon nazariyasi orqali kognitiv-pragmatik talqinga o'tishning izchil yo'lini bosib o'tgan; ammo bu yerda ham material asosan ko'rish fe'llari hamda roman-german tillari bilan chegaralangan [5; 85–87- b., 7, 35; 189–192- b.]. O'zbek tilshunosligida esa vaziyat o'ziga xos: bir tomondan, T.T.Musayev, T.Sh.Dadayev, Z.U.Siddiqov ishlarida sezgi fe'llarining ishonchli struktur-semantik tavsifi yaratilgan; ikkinchi tomondan, Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, D.U.Ashurova va boshqa olimlarning izlanishlari tufayli kognitiv-lingvokulturologik tahlil uchun zarur nazariy zamin shakllangan [55; 41 va 91- b., 61, 64, 65; 8- b.]. Lekin bu ikki yo'nalish teginish leksikasi misolida hanuzgacha birlashtirilmagan.

Aynan shu nuqtada mazkur tadqiqotning istiqboli ko'rinadi. Genetik jihatdan qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarining perseptiv sferasini chog'ishtirma asosda tahlil qilish, birinchidan, kognitiv nazariyalarning universalligini agglyutativ til materialida sinovdan o'tkazish, ikkinchidan, teginish idrokining milliy-madaniy o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi [18; 4–9- b., 66]. Amaliy jihatdan esa bunday tahlil natijalari konseptual-kognitiv hamda tematik lug'atlar tuzishda, chet tillarini o'qitishda va tarjima amaliyotida qo'l keladi [17, 54]. Shu bilan birga, ushbu maqolada tahlil chop etilgan manbalar bilan chegaralangani, shuningdek, g'arb an'anasi asosan ingliz tilidagi nashrlar doirasida baholangani keyingi izlanishlarda materialni kengaytirishni taqozo etadi.

Xulosa. Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, perseptiv leksika mustaqil leksik-semantik guruh sifatida XX asrning 70-yillarida shakllangan: Y.V.Yolkinaning korrelyativ juftliklar tahlili, V.I.Koduxovning LSG talqini va E.M.Umaxanovanning struktur-semantik tavsifi mazkur guruh chegaralarini belgilab bergan;

aynan shu ishlarda touch–feel juftligi ilk bor tizimli ravishda ajratib ko‘rsatilgan [21; 31- b., 22, 23].

Ikkinchidan, g‘arb tilshunosligida mavzu kognitiv-semantik hamda predikatlar tasnifi yo‘nalishida, rus tilshunosligida semasiologik, maydon va kognitiv-pragmatik yo‘nalishlarda, o‘zbek tilshunosligida esa asosan struktur-semantik yo‘nalishda o‘rganilgan. Uchala an‘anada ham ko‘rish modusi ustunlik qiladi, teginish modusi esa periferiyada qolgan (1-jadvalga qarang) [6].

Uchinchidan, ushbu nomutanosiblikning sababi teginish sezgisini ifodalovchi fe‘llar semantikasining aralash – bir vaqtning o‘zida fizik-fiziologik hamda mental – tabiatida bo‘lib, u mazkur birliklarning leksik-semantik tasnifdagi maqomini beqaror qiladi. Bu holat leksikografik amaliyotda ham o‘z aksini topgan [43; 176- b., 44; 20–25- b.].

To‘rtinchidan, o‘zbek tilshunosligida teginish sezgisini ifodalovchi lisoniy birliklarning qo‘llanish o‘rinlari, konseptual taksonomik modeli, uslubiy qo‘llanishdagi farqli jihatlari, lingvokognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari hozirga qadar monografik jihatdan o‘rganilmagan [11, 12, 13]. Yuqorida qayd etilgan manbalar kelgusida o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan mazkur hodisaning ilmiy tadqiq etilishi uchun mustahkam asos bo‘ladi desak, yanglishmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Верхотурова Т.Л. Наблюдатель в концепции У. Матураны (опыт лингвистического анализа) // Вопросы когнитивной лингвистики. – №2. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009. – С. 136–141.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с.
3. Розин В.М. Визуальная культура и восприятие. Как человек видит и понимает мир. Изд. 2-е. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 224 с.
4. Березин Ф.М. История лингвистических учений. – Новгород: Высшая школа, 1984. – 319 с.
5. Моисеева С.А. Семантическое поле глаголов восприятия в западнороманских языках: Монография. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2005.
6. Буданцева Н.А. Глагольная таксономическая модель и функциональный аспект её изучения (на примере глаголов зрительного восприятия) // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2013. – №1. – С. 22–29.
7. Домбровская И.В. Динамика и прогностика лексико-семантической группы зрительного восприятия в американском варианте английского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 200 с.

8. Архипова Ю.Ю. Состав, семантика и функционирование лексико-семантической группы глаголов зрительного восприятия (на материале художественных текстов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2000. – 19 с.
9. Бызова Ю.П. Предложения с глаголами зрительного восприятия в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2004. – 216 с.
10. Колесов И.Ю. Актуализация зрительного восприятия: когнитивный аспект: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Барнаул, 2009. – 214 с.
11. Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2000. – 27 б.
12. Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан. ном. ... дисс. – Т., 1992. – 145 б.
13. Дадаев Т.Ш. Глаголы чувственного восприятия в разносистемных (узбекском и русском) языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. – 36 с.
14. Белау М.Ю. Глагольная таксономическая модель концепта «Самостоятельное перемещение субъекта» в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. – 190 с.
15. Буданцева Н.А. Глагольная таксономическая модель концепта «зрительное восприятие» (на материале английского и французского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2014. – 246 с.
16. Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем тилшунослик асослари). – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 143 б.
17. Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳи системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 104 б.
18. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Тошкент: Фан, 2007.
19. Хошимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков: Монография. – Т.: Фан, 1991. – 105 с.
20. Буранов Дж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – 266 с.
21. Ёлкина Е.В. Семантико-синтаксический анализ коррелятивных пар look – see, listen – hear, touch – feel, sniff – smell, try – taste в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 1977.
22. Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М., 1987. – 288 с.

23. Умаханова Э.М. Структурно-семантическая характеристика глаголов физического восприятия (на материале английских глаголов see, hear, feel, smell, taste): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1975. – 182 с.
24. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Том I. Лексическая семантика. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1995. – 472 с.
25. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Theoretical Prerequisites. Vol. 1. – Stanford, Calif.: Stanford Univ. Press, 1987. – 516 p.
26. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М., 1990.
27. Wierzbicka A. Lexicography and conceptual analysis. – Ann Arbor, 1985.
28. Croft W. Explaining Language Change: an evolutionary approach. – London: Longman, 2000.
29. Croft W. The English Present, Progressive, Past constructions. – London: Longman, 2001.
30. Минский М. Фреймы для представления знаний. – М., 1979.
31. Johnson-Laird Ph.N. Mental Models. Toward a Cognitive Science of Language, Interference and Consciousness. – Cambridge, 1983. – 325 p.
32. Fauconnier G. Mappings in Thought and Language. – USA: Cambridge University Press, 1999.
33. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.
34. Teun A. van Dijk. Discourse and Power. – Palgrave Macmillan, 2008. – 304 p.
35. Гаврилин А.Н. Филология и лингвистика в современном мире (II). – Москва, июль 2018.
36. Гудавичюс Э. Проблемы лингвистики // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1980.
37. Язык реалий и реалии языка / Под ред. проф. А.А. Кретьева. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001.
38. Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидорова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. – М., 1998.
39. Подтележникова Е.Н. Хронологическая динамика полисемии (на примере функционирования лексемы look в английском языке) // Проблемы германских и романских языков. Лингвистика. Лингвострановедение. Преподавание: сб. науч. тр. – Воронеж, 2006. – Вып. 2. – С. 164–170.
40. Джапаридзе З.Н. Перцептивная фонетика (основные вопросы). – Тбилиси: Мецниереба, 1985.

41. Штерн А.С. Перцептивный аспект речевой деятельности: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – СПб.: С.-Петербург. ун-т, 1990.
42. Залевская А.А. Введение в психолингвистику. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 2000.
43. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М., 1990.
44. Бабенко Л.Г. Русская глагольная лексика: денотативное пространство: Монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 1999.
45. Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск, 2001. – 261 с.
46. Рахилина Е.В. Когнитивный анализ предметных имен: семантика и сочетаемость. – М.: Русские словари, 2000. – 416 с.
47. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004.
48. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2000.
49. Коситсина Е.Ф. Коммуникативная функция и структура языка. – М.: Наука, 2002. – 174 с.
50. Расулов Р., Атиязов С. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2012.
51. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.
52. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va soʻz oʻzlashtirish // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №3. – B. 3–12.
53. Xudoyberganova D.S. Oʻzbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 2015. – 240 b.
54. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015. – 192 b.
55. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
56. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
57. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуреда атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 4–9.
58. Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. – 2010. – Б. 69–70.

59. Abduvaliyev M.A. To'siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o'zbek va boshqa tillar misolida): Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Andijon, 2015.

60. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртаклари матнида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2016.

61. Ashurova D.U. Text linguistics. – Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 200 p.

62. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2012. – Б. 212–220.

63. Бондарко А.В. Теория значения в системе функциональной грамматики: На материале русского языка. – М., 2002.

64. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5. – B. 3–16.

65. Худойберганава Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

66. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 41 b.